

M. Xoliqova, Sh. Ergasheva

ODOBNOMA

**Umumiy o'rta ta'lim maktablarining
3- sinfi uchun darslik**

Tuzatilgan va to'ldirilgan to'rtinchi nashri

O'zbekiston Respublikasi
Xalq ta'limi vazirligi tomonidan tavsiya etilgan

TOSHKENT
«YANGIYUL POLIGRAPH SERVICE»
2019

UO'K: 17(075.2)

KBK: 74.200.51

X 72

Xoliqova, Mohira.

Odobnoma : umumiy o'rta ta'lim maktablarining 3- sinfi uchun darslik / M. Xoliqova, Sh. Ergasheva. - Tuzatilgan va to'ldirilgan to'rtinchi nashri — Toshkent: Yangiyul Poligraph Service, 2019. — 96 b.

ISBN 978-9943-5711-4-3

UO'K: 17(075.2)

KBK: 74.200.51

Taqrizchilar:

- A. Hasanov — tarix fanlari nomzodi, dotsent
A. Norboyev — Nizomiy nomidagi TDPU katta o'qituvchisi
D. Vohidov — A.Avloniy nomidagi XTTRMXQTMOI katta o'qituvchisi
S. Sharipova — Shayhontohur tumani 324- maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Shartli belgilar:



O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi moddalari



— Hikmatlar va hadislar



Matndagi murakkab so'zlarning izohli lug'ati



— Savol va topshiriqlar



— Eslab qol



— Aqlni charxlovchi quvnoq topshiriqlar



— Uyga vazifa

Respublika maqsadli kitob jamg'armasi mablag'lari hisobidan chop etildi.

ISBN 978-9943-5711-4-3

© «Yangiyul Poligraph Service», 2019.

© M. Xoliqova, Sh. Ergasheva, 2019.

Aziz o'quvchi! Qo'lingizdagi kitob Sizing «Odobnoma» fanidan 1–2- sinflarda olgan bilimlaringizni yanada kengaytirishga, mustahkamlashga xizmat qiladi.

3- sinfda Siz odobli bola qanday fazilatlarga ega bo'lishi, turli vaziyatlarda o'zini qay tarzda tutishi, oilasiga, Vataniga qanday foyda keltirishi haqida juda ko'p narsalarni bilib olasiz.

Bilim egallash uchun ko'p o'qish, o'rganish kerak. Sizda buning uchun vaqt va imkoniyatlar yetarli. O'ylaymizki, Siz vaqtni bekor o'tkazmaysiz, imkoniyatlardan unumli foydalanasiz.



I BOB. VATAN — MUQADDAS



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI — MUSTAQIL DAVLAT

Mustaqillik — ulug‘ ne‘mat. Mustaqil davlat xalqi erkin va ozod bo‘ladi. Tarixda hech bir xalq o‘z mustaqilligiga osonlik bilan erishmagan. Ota-bobolarimiz ham asrlar davomida ozodlik uchun kurash olib borganlar. Shiroq, To‘maris, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur singari buyuk ajdodlarimiz hayoti bunga misoldir.

1991- yil 31- avgustda davlat mustaqilligi e‘lon qilindi. 1- sentabr Mustaqillik kuni sifatida nishonlanadi. Shu paytdan boshlab mamlakatimiz rivojlanish yo‘liga qadam qo‘ydi.

Islom Karimov O‘zbekistonning Birinchi Prezidentidir. U xalqimizni mustaqil rivojlanish yo‘liga olib chiqdi.

Mustaqil davlat boshqa bir davlatga tobe bo‘lmaydi. Mustaqil siyosat yuritadi, boyliklariga o‘zi egalik qiladi.

Hozirgi tinch hayotimiz, yurtimizdagi rivojlanish mustaqillik tufaylidir. Shuning uchun uni qadrlashimiz, a‘lo o‘qish va odob-axloqli bo‘lish bilan Vatanimiz rivojiga hissa qo‘shishimiz kerak.

O‘ZBEKISTONIM

Aziz o‘lkam, o‘zing ko‘rkam,
Chinorlaring bizdek o‘ktam.
Tosh ham gullar tuprog‘ingda,
Mehrining qaynar bulog‘ingda.

Qo‘li ochiq bog‘laring ko‘p,
G‘aznaga kon tog‘laring ko‘p.
Yashnamoqda qishloq, shahring,
Yaxshilikka to‘liq bag‘ring.

Osmoningdan, o‘tlog‘ingdan,
Paxtaoydek oppog‘ingdan.
Rang olgandir bayrog‘ing ham,
Aziz o‘lkam, o‘zing ko‘rkam!

Anvar Obidjon



Mustaqillik yillarida yosh avlodning komil insonlar bo'lib voyaga yetishlari uchun barcha sharoitlar yaratildi. Yorug' va shinam o'quv xonalari, sport inshootlari, ijod markazlari barpo etildi. Yoshlar bu imkoniyatlardan foydalanib, o'z qobiliyatlarini ro'yobga chiqarishlari mumkin.

Bugungi kunda o'zbekistonlik yoshlar har sohada ulkan yutuqlarni qo'lga kiritib, dunyoga tanilmoqdalar.

Har bir inson o'z Vataniga xizmat qilishi, uning gullab-yashnashiga hissa qo'shishi lozim.



1. Mustaqillik deganda nimani tushunasiz?
2. Vatan rivojiga qanday hissa qo'shishim kerak, deb o'ylaysiz?
3. Sizningcha, qanday insonlarning Vatanga ko'proq foydasi tegadi?
4. Vatan, ozodlik mavzusidagi qanday kinofilmlarni ko'rgansiz?
5. Ota-onangiz bilan Vatanimiz tarixi, buyuk ajdodlarimiz haqida suhbatlashing.

MUSTAQILLIK BERGAN IMKONIYATLAR



Yoshlar ijod saroyi 2008 — «Yoshlar yili»da bunyod etilgan noyob me'moriy majmua. Bu yerda uchta ko'rgazmalar zali, madaniy-ma'rifiy tadbirlarni o'tkazish uchun katta zal, shuningdek san'atning turli yo'nalishlari bilan shug'ullanish uchun ijodiy ustaxonalar joylashgan.

Yoshlar bunday saroylarda o'zlari qiziqqan san'at turlarini o'rganishlari va namoyish qilishlari mumkin.

AKA-UKA SINDOROVLAR — JAHON CHEMPIONLARI

Shaxmat aqlni charxlaydi. Tafakkurni o'stirib, to'g'ri qaror qabul qilishga o'rgatadi. Inson kamolotida bu sport turining o'рни katta.

O‘zbekistonlik aka-uka shaxmatchilar Javohir va Islombek Sindorovlar xalqaro musobaqalarda g‘olib bo‘lib, yurtimiz dovrug‘ini jahonga tanitdilar. Ular dunyoning eng kuchli yosh sportchilarini mag‘lubiyatga uchratdilar. Javohir va Islombek o‘zbek yoshlari har sohada ilg‘or ekanini yana bir bor isbotladilar.

Iqtidor har bir insonda mavjud. Uni ro‘yobga chiqarish uchun tinimsiz mehnat, qunt va sabr talab etiladi. Aniq maqsad qo‘yib, unga dadil intilgan kishi, albatta, maqsadiga erishadi.



Kim necha yoshda grossmeyster bo'lgan?

1. Sergey Karyakin, Rossiya — 12 yoshda.
2. Javohir Sindorov, O'zbekiston — 12 yoshda.
3. R. Pragnanandxa, Hindiston — 12 yoshda.
4. Magnus Karlsen, Norvegiya — 13 yoshda.



Shaxmat bo'yicha jahon chempioni, yosh xalqaro grossmeyster Nodirbek Abdusattorov Prezident tomonidan maxsus sovg'a bilan taqdirlandi. Nodirbek singari yoshlar Vatanimiz nomini dunyoga tanitmoqdalar. Ular kabi yutuqlarga erishishga harakat qiling.



Grossmeyster — shaxmat sport turidagi eng yuksak unvon.



1. Aka-uka Sindorovlarning katta yutuqlarga erishishlarining sababi nimada?
2. Sizning ham yutuqlaringiz bormi? Tengdoshlaringizda-chi?
3. Inson muvaffaqiyatga erishishi uchun nimalar qilishi kerak, deb o'ylaysiz?

KELAJAK HAQIDA SUHBAT

Tarbiya soatida ustoz savol berdi:

— O'quvchilar, kelajakda kim bo'lmoqchisiz? Bunga hozirdan qanday tayyorgarlik ko'ryapsiz?

— Men konstruktor bo'lib, insonlar mehnatini yengil qiladigan robotlar yaratmoqchiman, — dedi Akbar. — Shuning uchun yosh texniklar to'garagiga qatnashyapman.

— Men dizayner bo'lmoqchiman, — dedi Zilola. — Yoshlar ijod saroyida chiroyli ko'ylaklar tikishni o'rganyapman.

— Men Mutal Burxonovdek bastakor bo'lmoqchiman. Kelajakda Vatanimizni madh etuvchi kuy-lar yarataman, — dedi Diyorbek. — Darsdan so'ng musiqa maktabida mashq qilaman.

— Men badiiy gimnastika bilan shug'ullan-yapman. Yaqinda Samarqand shahrida bo'lib o'tgan musobaqada ishtirok etib, g'olib bo'ldim, — dedi Mohira.

— Men esa tadbirkor bo'lmoqchiman, — dedi Bekzod. — O'zim ishlab chiqargan mahsulotlarni dunyoga olib chiqaman. Buning uchun ko'p til-larni bilishim kerak. Hozir rus va ingliz tillarini o'rganyapman.

O'quvchilarning javobidan ustoz mamnun bo'ldi va dedi:

— Ofarin, hozirdan shunday maqsadlar bilan ha-rakat qilsangiz, albatta, orzularingiz amalga oshadi.



Dunyodagi eng yosh dirijorlardan biri — Asadbek Ayubjonov.



O'zbekistonlik yosh gimnastikachilar 2018- yili Osiyo chempionatidan 14 ta medal bilan qaytdilar.



1. Siz yashayotgan hududda yoshlar uchun qanday imkoniyatlar yaratilgan?
2. Siz ham yaratilgan imkoniyatlardan foydalanyapsizmi?
3. O'zingiz bilgan insonlardan kimga havas qilasiz? Nima uchun? U qanday qilib yutuqlarga erishdi, deb o'ylaysiz?

DAVLAT RAMZLARI — MILLIY IFTIXORIMIZ

O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i 1991- yil 18- noyabrda qabul qilingan.

1992- yil 2- iyulda qabul qilingan respublikamiz gerbida afsonaviy Humo qushi tasvirlangan. Shuningdek, unda paxta, bug‘doy, quyosh, tog‘lar, vodiya va daryolar tasviri ham bor. Bayroq hamda gerbdagi har bir rang va tasvirlar o‘z ramziga, ma‘nosiga ega.

O‘zbekiston Respublikasining madhiyasi 1992- yil 10- dekabrda qabul qilingan. Vatanimiz madhiyasi yangraganda qalbimizda faxr-iftixor tuyg‘usi uyg‘onadi. O‘ng qo‘limizni ko‘ksimizga qo‘yish orqali yurtimizga bo‘lgan mehrimizni ifoda qilamiz.



1. Mamlakatimiz bayrog‘ini qayerlarda ko‘rgansiz?
2. Bayrog‘imizning hilpirab turishi sizda qanday tuyg‘ularni uyg‘otadi?
3. Davlatimiz madhiyasini yoddan aytib bera olasizmi?

BAYROG‘IMIZ — IFTIXORIMIZ

Jaloliddin mustaqillik bayrami arafasida ota-onasi bilan poytaxtga keldi. «Xalqlar do‘stligi» maydoni oldidan o‘tar ekan, uning ko‘zi ulkan bayroqqa tushdi.

— Qarang, davlatimiz bayrog‘i qanday chiroyli!
— dedi quvonib.

— Ha, o‘g‘lim, bayroq yurt ozodligi va tinchligining ramzi. Balandligi 65 metrlik bu bayroqning hilpirab turishi qalbimizda fahr uyg‘otadi.

— Otajon, nega g‘olib sportchilar musobaqalarda o‘z mamlakati bayrog‘ini yuqori ko‘taradilar?

— Chunki bayroq azaldan g‘alaba va ozodlik timsoli bo‘lgan. Sportchilar bayroq orqali o‘z yurtining farzandi ekanidan faxrlanish tuyg‘usini ifo-





dalaydilar. Shu bilan birga g'oliblar sharafiga yurt madhiyasi ham yangraydi.

— Men ham katta bo'lsam, albatta yurtimiz bayrog'ini yuksaklarga ko'taraman, — dedi Jalolidin.



Vatanimiz bayrog'i, gerbi, madhiyasiga hurmatsizlik uchun qonunlarda javobgarlik ko'zda tutilgan. Davlat ramzlarini hurmat qilish burchimizdir.



Mos javoblarni qo'yib, topshiriqni daftaringizda bajaring.

_____ O'zbekiston mustaqilligi e'lon qilindi.

Davlat bayrog'i _____ da qabul qilingan.

1992- yil 8- dekabr _____ qabul qilingan kun.

_____ O'zbekistonning Birinchi Prezidentidir.

O'zbekiston madhiyasi matni muallifi _____.



1. Davlat ramzlari haqida ma'lumot bering.
2. Davlatimiz gerbidagi Humo qushi nima-ning ramzi? Bug'doy, paxta va quyosh-chi?
3. Davlat ramzlariga qanday munosabatda bo'lish kerak?

TARIHIY OBIDALAR — MADANIY BOYLIGIMIZ

Yurtimizda qadimiy obidalar juda ko'p. Ular bizning boy tariximizdan, ota-bobolarimizning yuksak aql-u zakovatidan darak beradi.



Samarqand shahridagi Registon maydoni hamisha sayohatchilar bilan gavjum. Chunki bu maydonda uchta muhtasham obida: Sherdor, Tillakori va Ulug'bek madrasalari joylashgan.

Ichan qal'a Xivadagi qalin devorlar bilan o'ralgan noyob obidadir. Bir paytlar bu devorlar shahar xalqini tashqi dushmanlardan himoya qilgan.



1997- yilda Xiva shahrining 2500 yilligi munosabati bilan Ichan qal'a qayta ta'mirlandi.

Minorayi Kalon katta minora degan ma'noni anglatadi. Ushbu yodgorlik 1127- yilda qurilgan. Buxoroga borgan kishi bu minorani ko'rmay ketmaydi.

Imom Buxoriy majmuasi Samarqand shahri yaqinidagi Xartang qishlog'ida joylashgan.





Ajdodlarimiz buyuk muhaddis allomaning qabrini ziyoratgohga aylantirishgan.

Shahrisabz shahridagi Oqsaroyning o'qsimon gumbazi oralig'i 22 metrdan ortiq bo'lib, temuriylar barpo etgan inshootlar orasida eng ajoyibidir. Saroy peshtoqida: «Qudratimizga shubhangiz bo'lsa, biz qurdirgan imoratlarga boqing», deb yozilgan.

Bobolarimizdan meros bo'lgan tarixiy obidalarni asrash va kelajak avlodlarga yetkazish har birimizning burchimizdir.

Mustaqillik yillarida yurtimizda muhtasham imoratlar qurildi. Bu binolar ham kelajakda tarixiy obidalar sifatida qadrlanadi.



Muhaddis — hadislarni to'plagan va o'rgangan olim.



O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 49- moddasida: «Fuqarolar O‘zbekiston xalqining tarixiy, ma’naviy va madaniy merosini avaylab asrashga majburdirlar. Madaniyat yodgorliklari davlat muhofazasidadir», deyilgan.



1. Yurtimizdagi qaysi tarixiy obidalar haqida ma’lumotga egasiz?
2. Siz ham tarixiy obidalarni ziyorat qilganmisiz?
3. Mustaqillik yillarida qurilgan muhtasham inshootlar haqida nimalarni bilasiz?
4. Tarixiy obidalarni asrab-avaylash nima uchun zarur?


AMALIY MASHG‘ULOT «MEN YASHAYOTGAN HUDUDDAGI TARIXIY OBIDALAR»



1. Qishlog‘ingiz yoki shahringiz nomining kelib chiqishi tarixi haqidagi rivoyatlarni bilasizmi?
2. Hududingizda qanday tarixiy obidalar bor? Ularni ziyorat qilganmisiz?



Boshqotirmani yeching.



1. Gerb, bayroq, madhiya —
2. ...-yurt.
3. O‘zbekiston — ... diyor.
4. Mustaqillik, erkinlik.
5. Mamlakatimizdagi daryo.
6. Osoyishtalik.
7. Qadimiy yodgorlik.
8. Aziz ne‘mat.



O'zbekiston — qadimiy diyor. Buyuk Ipak yo'li ustida joylashgan mamlakatimiz tarixiy yodgorliklarga boy. Yurtimizning har bir qishloq va shahrida tarixiy inshootlar va diqqatga sazovor joylar bor.

Chet mamlakatlarda yurtimiz tarixiga qiziqish kuchli. Qadimiy va tarixiy obidalarimizni ko'rish uchun butun dunyodan sayyohlar keladi. Tarixiy obidalar turizmni rivojlantirishga hissa qo'shishi bilan ham ahamiyatlidir.

BIBIXONIM MASJIDI VA MADRASASI

Saroymulxonim Amir Temurning sevimli rafiqasi edi. U aql-u zakovatda tengsiz bo'lgani uchun saroyda Bibixonim — Katta xonim etib tayinlangan.

Bibixonim davlat ishlarida sohibqironga yaqindan yordam bergan. U qurilish va obodonchilik ishlari bilan ham shug'ullangan.

1399-yilda Hindistondan g'alaba bilan qaytgan Amir Temur madrasa qurdirmoqchi bo'ladi. Dunyoning eng mohir muhandislari, tajribali ustalari ish boshlaydi. Tog'larda 500 kishi toshlarni yo'nib, shaharga yuborib turadi. Aravalarga qo'shilgan ho'kizlar, Hindistondan keltirilgan fillar ishga solinadi.

Sohibqiron bir necha oy qurilishni o‘zi kuzatib turadi, ammo tezda yana uzoq muddatli safarga otlanadi. Qurilishga rahbarlikni Bibixonimga topshiradi.


Bibixonim sohibqironning qaytishiga sovg‘a bo‘lsin deb madrasa yonida masjid ham qurib bitkazishni o‘ylab qo‘yadi. U quruvchilarni chaqirib, topshiriqlar va in‘omlar beradi. Ish qizib ketadi. Minoralar ko‘kka bo‘y cho‘zib, keng maydonda oq marmar ravoqlar tiklanadi.

Amir Temur shaharga qaytganida ulug‘vor madrasa va masjidni ko‘rib behad quvonadi. O‘z davrida Bibixonim madrasasida mingga yaqin talabalar ilm olgan.



II BOB. ODOB-AXLOQ XAZINASI

MA'RIFATPARVARLIK AJDODLARIMIZDAN MEROS FAZILAT



**Abu Ali
ibn Sino**



**Abu Rayhon
Beruniy**



**Mirzo
Ulug'bek**

Ma'rifatparvarlik — insonlarni bilim olishga chorlash demakdir.

Qadimiy kitob — «Avesto»da ilm o'rganishning ahamiyati va odob-axloq haqida so'z yuritiladi. «Ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal» bu kitobning bosh qoidasidir.

Bobolarimiz ilm-ma'rifatni ulug'lab, uni chuqur egallashga intilganlar. Ibn Sino, Beruniy, Mirzo Ulug'bek va boshqa allomalarning hayoti va faoliyati bizga ibratdir.

Ibn Sino tabobat ilmidan tashqari, matematika, tabiatshunoslik fanlarini ham chuqur bilgan. U she'rlari va dostonlari orqali insonlarni ilm o'rganishga va yaxshi fazilatlar egasi bo'lishga chaqirgan.

Beruniy ilmning deyarli barcha sohalari bilan shug'ullangan. Uning ilmiy yutuqlaridan butun dunyo hanuzgacha foydalanadi.

Mirzo Ulug'bek yulduzlar ilmini o'rgangan shoh va olim. U 1018 ta yulduzning falakdagi o'rnini aniqladi. Mirzo Ulug'bek rasadxonasi o'z davri uchun buyuk kashfiyot edi.

Ma'rifatparvar bobolarimiz bilan faxrlanishimiz, ularning ishlarini davom ettirishimiz kerak. Imom Buxoriy ta'kidlaganidek: «Dunyoda ilmdan boshqa najot yo'q va bo'lmagay».



Najot — ko'mak, yordam, qiyin vaziyatdan chiqish yo'li.



Donolar ilm haqida

Ilm — narsalarni aql yordamida o'rganishdir.

Ibn Sino

Bilim bilan saodat yo'li ochiladi,

Shuning uchun ilmli bo'l, baxt yo'lini izla.

Ahmad Yugnakiy

Kitob barcha bunyodkorlik, yaratuvchilik va aql-idrokning, ilm-u donishning asosidir, hayotni yaratuvchi murabbiydir.

Amir Temur

Bilmaganni so'rab o'rgangan olim,

Orlanib so'ramagan o'ziga zolim.

Alisher Navoiy

BERUNIYNING DAM OLIISH KUNLARI

Beruniy yiliga ikki martagina — Navro‘z bayramida va bug‘doyga birinchi o‘roq tushganda dam olar ekan.

Navro‘z kuni erta tongda o‘rnidan turib, yuvinib-taranib, yaxshi liboslarini kiyib, qarindosh-urug‘lar holidan xabar olarkan. Keyin yor-u birodarlarini ziyorat qilib, suhbatlashar, hazil-mutoyiba qilarkan. So‘ng dalaga chiqib, yerga birinchi omoch solishda qatnashar, dehqonlar bilan qosh qorayguncha qo‘sh qo‘shar, nihol ekisharkan...

Hol-ahvol so‘raganlarga:

— Dam olib, hayot lazzatini totib ko‘rmoq-daman, — deb javob berar ekan.

Boshoqqa birinchi o‘roq tushganda ham dehqoncha kiyinib, tongdan kechgacha bug‘doy o‘rarkan. O‘tgan-ketganlar: «Hormang», — der, u esa xushnudlik bilan: «Bor bo‘ling», — der ekan.


Alloma yilning ikki kunini shunday o‘tkazar, qolgan kunlarni tinimsiz mutolaa, kitob yozish, tajriba o‘tkazish, ijod qilishga bag‘ishlar ekan. Sahardan kechgacha yer haydash, o‘roq o‘rishni mehnat emas, balki dam olish deb bilarkan.

Ha, Beruniy: «Bir daqiqa vaqtni bekor o'tkazganim — halok bo'lganim», deb bejiz ayt-magan. Vaqtni qadrlashni buyuk bobomizdan o'rganishimiz kerak.



1. Beruniy Navro'z kunini nima uchun o'zgalar holidan xabar olish va da-lada mehnat qilish bilan o'tkazdi, deb o'ylaysiz?
2. Alloma vaqt qadrini qanday ifodalagan?
3. Beruniy qaysi fazilatlari tufayli buyuk in-son darajasiga yetdi?

TOSHNI KESGAN ARQON



Buyuk tabib Abu Ali ibn Sino bolalik chog'ida matema-tikani uncha yoqtirmas ekan. Chunki u bu fanni juda qiyin deb hisoblar ekan.

Bir kuni ibn Sino qir-adir-da ketayotib, quduqqa duch kelibdi. Chanqog'ini qondirish maqsadida quduqqa chelak tashlabdi. Suvni tortib olar ekan, quduq cheti-dagi marmar toshga e'tibor beribdi. Tosh che-



lakka bog'langan arqonning sirg'alishidan yeyilib ketgan ekan. Ibn Sino xayolga tolibdi:

— Arqon yumshoq bo'lsa, qanday qilib mustahkam marmar toshni kesishi mumkin? Demak, har qancha qiyin bo'lmasin, biror ishni uddalash uchun g'ayrat-shijoat, sabr-matonat bilan tinimsiz mehnat qilish kerak ekan-da! Men matematika-ni tushunmayman, agar harakat qilsam, albatta o'rganib olaman.

Shunday qilib, alloma matematikani to'la-to'kis o'zlashtiribdi.

Ibn Sino har gal qiyin ishga duch kelgan paytda marmarni kesgan arqonni esga olar ekan.



1. Sizningcha, ibn Sino dunyoga mashhur olim bo'lishining siri nimada?
2. Qiyin ishni, bu mening qo'limdan kelmaydi, deb tashlab qo'yish to'g'rimi?
3. Inson nima uchun bilim olishi kerak, deb o'ylaysiz?
4. Bilim egallasdan yutuqlarga erishish mumkinmi?
5. Atrofingizdagi insonlardan kimlarga havas qilasiz? Uning qaysi fazilatlari sizga yoqadi?

MA'RIFAT KOMILLIKKA YETAKLAYDI

Biz ilm-fan, texnika rivojlangan davrda yashayapmiz. Kundalik hayotimizda qo'llayotgan, og'irimizni yengil qilayotgan texnika vositalari insoniyatning ming yillar davomida yig'ilgan bilim va tajribalari natijasidir.

Bilimli odamlari ko'p bo'lgan mamlakat qudratli bo'ladi. Shuning uchun mamlakatimizda ilm-fanni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bilimning yuksak cho'qqilarini egallashni maqsad



2017- yilda Hindistonda o'tkazilgan maktab o'quvchilari o'rtasidagi matematika bo'yicha xalqaro musobaqada vakillarimiz 2 ta oltin, 2 ta kumush medalni qo'lga kiritib, umumjamo'a hisobida 2- o'rinni egalladilar.



qilgan O'zbekiston yoshlari xalqaro fan olimpiadalarida g'oliblikni qo'lga kiritmoqdalar. Shuningdek, dunyoning nufuzli universitetlarida tahsil olmoqdalar.

Buyuk ajdodlarimizning ma'rifatparvarlik ishlarini davom ettirish burchimizdir.

ILMNING FOYDASI

Keksa Arastu o'g'lini chaqirib shunday debdi:

— Bolajonim, o'z umrimni ilm o'rganishga bag'ishladim. Ilm-u hikmat nuri bilan juda ko'p tugunlarni yechdim, ammo o'limga chora topolmadim. Senga qiladigan vasiyatim shu: boylik abadiy emas. Izzat-hurmat, shon-sharafni ilmdan topasan. Ilm tufayli qo'lga kiritgan obro'ying mustahkam bo'ladi. Shohlar meni il-mim tufayli ulug'lashdi. Bo'lmasa, men ham ularning oddiy fuqarosi edim. Fuqarolar shohlarga ta'zim qilishadi. Izzat-hurmatga loyiq bo'lay, nomim abadiy qolsin desang, ilm o'rgan.



1. Yurtimizdan yetishib chiqqan mutafakkirlardan kimlarni bilasiz?
2. Ular qanday qilib shunday yutuqlarga erishganlar?
3. Kundalik hayotda qanday texnika vositalaridan foydalanamiz? Bilimsiz odam ularni yaratishi mumkinmidi?

ODOB-AXLOQ ME'YORLARI

ODOBNI ODOBSIZDAN O'RGANDIM

Luqmoni hakimdan so'radilar:

- Odobni kimdan o'rganding?
- Odobsizdan, — javob qildi u.
- Iye, qanaqasiga? — hayron bo'lishdi.
- Odobsizning qaysi ishi ko'zimga yomon ko'rinsa, o'sha ishlarni men qilmadim.

«Sharq rivoyatlari»dan



1. «Odobni odobsizdan o'rgan» degan naqlni qanday tushunasiz?
2. Sizda birovning nojo'ya xatti-harakati e'tiroz uyg'otganmi? Undan qanday xulosasi chiqargansiz?

Ota-bobolarimiz insonlarni odob-axloqli bo'lishga chorlab kelishgan. Chunki inson odob-axloqi bilan go'zaldir.

Sohibqiron Amir Temur shunday dedi: «Ochiqyuzlilik, rahm-shafqat bilan xalqni

o'zimga rom qildim. Adolat bilan ish yuritib, jabr-zulmdan uzoqroqda bo'lishga intildim».

Qadimda esa bir donishmand farzandiga shunday nasihat qilgan ekan:

— Ey farzand, hayotda yutuqlarga erishish uchun quyidagi nasihatlarimga amal qil:

- Halol bo'l, mehnatni sev. Halol mehnat qilgan odam kam bo'lmaydi.
- Yalqovlikdan uzoqlash, g'ayrat-shijoatni o'zingga shior qil. Doimo harakatda bo'l va oldinga intil.
- Ehtiyotkor bo'l. Barcha ishda tartib va intizomga rioya qil.
- Senga topshirilgan vazifalarni bekam-ko'st ado qil.
- Samimiy, pok qalbli va to'g'riso'z bo'l.
- Sabrli, hammaga mehribon va g'amxo'r bo'l.
- Kiyinishda, yurish-turishda sodda va tabiiy yo'lni tut. Maqtanchoq bo'lma.

KIM BILAN DO'ST BO'LISH KERAK?

Donolarning aytishicha, uch guruh kishilar bilan do'st bo'lish mumkin:

1. Ilmli kishilar bilan. Chunki ular o'z hayotlarini ilm-u odob bilan o'tkazadilar.

2. Olijanob kishilar bilan. Ular do'stlarining aybini yashiradilar va hech qachon oshkor qilmaydilar. Yolg'iz qolganda do'stining aybini o'ziga aytib, tuzatishga yordam beradilar.
3. Mard va jasur kishilar bilan. Ularning do'stliklari haqiqiy bo'ladi. Do'stlikdan foyda ko'rishni o'ylamaydilar.

«Sharq rivoyatlari»dan



Chin do'st uldirki, do'stidan hech qachon ranjmaydi, agar ranjisa ham, uzrini qabul qiladi.

Amir Temur

Yangi do'st topsang, eski do'stlaringni unutm va ulardan yuz o'girma. Shunday qilginki, do'stlaring ko'p bo'lsin. Yaxshi do'stlar kishining boyligidir.

Kaykovus

Nodon do'stni do'st soniga kiritma...
Nodon do'stdan zarar imkoni ko'proq.

Alisher Navoiy



Odob-axloq haqida she'r, maqol yoki ertaklardan namunalar to'plang va daftaringizga yozing.

ODOB-AXLOQ HAQIDA HADISLAR



Hadislar islom dinida insonlarni to'g'ri yo'lga boshlovchi muhim manbadir.

Hadislarda yaxshi xulq va go'zal fazilatlar targ'ib qilinadi. Yomonlik, chaqimchilik, bировга ozor yetkazish, yolg'onchilik kabi illatlar qoralanadi.



Fazilat — insondagi yaxshi odatlar. Fazilatlarimiz qancha ko'p bo'lsa, shuncha yaxshi.

Illat — kishi fe'l-atvoridagi yomon xususiyatlar. Ularni yo'qotmay turib yaxshi degan nom olib bo'lmaydi.

Muqaddas kitoblarda bolalar odobi va tarbiyasiga oid juda ko'p fikrlar aytilishi bilan birga ilm olish farz ekanligi qayd etiladi.



Yurtimizdan dunyoga mashhur muhadislar yetishib chiqqan. Imom Buxoriy, Imom Termiziy singari bobokalonlarimiz hadislarini to'plaganlar.



Hadislardan namunalar

Odamlar orasida chaqimchilik va yolg'on gap-larni tarqatishdan saqlaninglar.

* * *

Rostgo'ylikda xavf-u xatar ko'rsanglar ham, faqat rost so'zlanglar. Shunda najot topasizlar. Garchi foyda ko'rib turgan bo'lsangiz ham, yolg'ondan saqlaninglar. Chunki baribir yolg'onning oxiri — voy.

* * *

Kishidagi eng yomon illat o'ta baxillik va qo'rqqoqlikdir.



1. Yuqoridagi hadislardan qaysi biri sizda ko'proq taassurot qoldirdi? Nima uchun?
2. Odob-axloqqa oid hadislardan to'plang.
3. Hadislarda targ'ib qilingan quyidagi fazilatlar va qoralangan illatlarni ikkita ustunga ajratib yozing. Ro'yxatni davom ettiring.

Mehr-oqibat, yolg'onchilik, rostgo'ylik, adovat, adolat, baxillik, saxiylik, poklik, adolatsizlik, xiyonat, insof, zulm, maqtanchoqlik...

MUTOLAA ODOBI



Kitob o'qish qoidalari:

1. Kitobni to'g'ri tanlash.
2. Qanday kitobni o'qish haqida kattalardan maslahat so'rash.
3. Kitob o'qish uchun kun tartibidan vaqt ajratish.
4. Kitobni yorug' joyda, ko'zdan ma'lum masofada tutgan holda o'qish.
5. Kitob varaqlarini buklamaslik, kir qilmaslik, unga chizmaslik.
6. Kitobni asrab-avaylash, kitob javonida saqlash.
7. O'qilgan kitoblar haqida yaqinlarga va do'stlarga so'zlab berish.

Kitob — bilim manbayi. Qadimdan xalqimiz kitobni nonday qadrlab kelgan. Kitobga muhabbat, uni o'qishga ishtiyoq xalqimizga xos qadriyatdir.

Bilim va odob-axloq egallashda kitob bizga yaqindan yordam beradi. Buyuk insonlar kitobni do'st tutib, komillikka erishganlar.

Kitob o'qigan inson bilimi va yuksak tafakkuri bilan ajralib turadi. So'z boyligi oshadi, nutq madaniyati yuksaladi.



Tafakkur — fikrlash, o'ylash, mulohaza yuritish.



Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi eshiklari kitobxonlar uchun doim ochiq.

Lekin ayrim yoshlar mutolaa o‘rniga ko‘proq televizor ko‘rishga yoki kompyuter o‘yinlariga qiziqadilar. Bu bilan ular qimmatli vaqtlarini behuda yo‘qotadilar.

Kitob o‘qimaydigan bolalar kelajakda barkamol shaxs bo‘la olmaydilar. Shu bois kitob bilan do‘st bo‘lishimiz kerak.



Barkamol — har tomonlama yetuk, rivojlangan.



1. Qanday kitoblarni o‘qigansiz?
2. O‘zingizga eng yoqqan ertak yoki hikoya haqida so‘zlab bering.
3. «O‘qish» darsligidagi qaysi asar sizga yoqdi? Nima uchun?

ENG KERAKLI NARSA

Qadim zamonda bir podshoh vazir-u ulamolalarini chaqirib:

— Dunyoda eng zo‘r, kerakli, hamma narsadan xabardor qiluvchi narsa nima? — deb savol beribdi. Birov: «Qilich», — desa, yana biri: «Boylilik», — debdi.

— Uch kun muhlat beraman, — debdi podshoh javoblar yoqmaganidan darg‘azab bo‘lib.

Qo‘shni mamlakatda bir donishmand yashar ekan. Vazir uni topib, podshohning oldiga olib kelibdi.

— Dunyoda eng kerakli narsa nima? — deb so‘rabdi podshoh.

— Kitob! — debdi donishmand hech ikkilanmay. — O‘tmishdan hikoya qiluvchi tarix, bugunni aks ettiruvchi ko‘zgu, ertangi kunni aytib beruvchi mo‘jiza kitobdir. Kitob o‘qimagan odam nodondir, kitob kirmagan uy qorong‘u zimistondir. Mana men tug‘ilib o‘sgan qishlog‘imdan chiqmaganman. Biroq butun dunyo, turli xalqlar, ularning urf-odatlarini haqida bilaman. Bularning barini kitobdan o‘qiganman.

Podshoh donishmandning javobidan mamnun bo‘libdi:



— Saroyimda qolib, bosh maslahatchim bo‘l,
— debdi.

Lekin donishmand ko‘nmabdi. Podshoh in‘om qilgan oltinlarga bozordan ko‘p kitob xarid qilib, qishlog‘iga qaytibdi...



1. Donishmand nega saroyda qolishni istamadi?
2. Kitob insonda qanday fazilatlarni shakllantiradi?
3. Uyingizda qanday kitoblar borligi bilan qiziqing. Bu kitoblar haqida ota-onangiz bilan suhbatlashing.
4. Oilaviy kutubxonangizdagi yoshingizga mos bo‘lgan kitoblarning ro‘yxatini tuzing.

AMALIY MASHG‘ULOT «MEN SEVGAN KITOB»

KITOB TARIXI

Kitob insoniyatning eng buyuk ixtirolaridan biridir. U ming yillar avval paydo bo‘lgan. Dastlabki kitoblar yumshoq loyga yozilgan va quritilgan. Keyinchalik odamlar daraxt po‘stlog‘i, hayvonlar terisiga yozishni o‘rgandilar.

Ba‘zi xalqlar o‘z fikrlarini tosh, sopol, suyak va boshqa narsalarga yozib qoldirganlar.

Ilk qog‘oz kitoblar Xitoyda paydo bo‘lgan. Samarqand qog‘ozidan tayyorlangan kitoblar ham mashhur bo‘lgan.

Axborot texnologiyalari rivojlangan hozirgi davrda ham kitobning qimmatini pasaymadi. Chunki kitob beradigan bilimning o‘rnini hech narsa bosa olmaydi. Kitob o‘qing va insoniyat ming yillar davomida to‘plagan bilimlarni egallang.





BU KITOB

Hayotimiz oynasi,
Bilimlarning onasi,
Buyumlar durdonasi,
Menga o'rgatgan odob —
Bu kitobdir, bu kitob.

Aks etgan yer-u osmon,
O'tmish, kelajak zamon.
Unda she'r, ertak, doston,
Har savolga bor javob —
Bu kitobdir, bu kitob.

Mazmunlari xilma-xil,
Aqlingga qo'shgan aql,
Do'stimdir juda ahil,
Fan yo'lida nur-oftob —
Bu kitobdir, bu kitob.




Po'lat Mo'min

Quyidagi jadvalni daftaringizga chizib, kitob o'qigan va o'qimagan bolaga xos sifatlarni yozing.

Kitob o'qigan bola	Kitob o'qimagan bola
dono	bilimsiz



Boshqotirmanani yeching.



Eniga:

1. Ertaklar ...ka yetaklar.
2. Buyuk shoir, o'zbek adabiy tilining asoschisi.
3. Xalqning dono fikri.

Bo'yiga:

1. Kitobning tarkibiy qismi.
2. Kitob — manbai.
3. Xalqning dono fikri, nasihati.



III BOB. MEHNAT INSONNI ULUG‘LAYDI

MEHNAT INSON HAYOTINI BEZAYDI



Maqollarni o‘qing. Bu maqollar orqali nima deyilmoqchi?

Mehnatdan kelsa boylik,
Turmush bo‘lar chiroylik.

Halol mehnat — yaxshi odat,
Berur senga saodat.

Mehnat inson hayotini bezaydi. Biz ishlatayotgan buyumlar, kiyimlar, iste‘mol qilayotgan taomlar — barchasi kimningdir mehnati tufayli yuzaga keladi. Insonning qo‘li — gul. U istasa, toshda gul undirishi, oddiy loydan bejirim buyumlar yasashi mumkin.

Dangasalik — yomon odat. Dangasa inson hech qachon maqsadiga erisha olmaydi.



1. Mehnat insonga nima beradi?
2. «Zumrad va Qimmat» ertagini yodga oling. Zumradning qaysi fazilatlaridan ibrat olish mumkin? Nima uchun Qimmatga o‘xshashni istamaysiz?
3. Siz qaysi uy ishlarida ota-onangizga yordam berasiz?


Quyidagi jadvaldan mehnatsevar insonga xos bo'lgan xususiyatlarni aniqlang va daftaringizga yozing.

Qunt	
Intiluvchanlik	
Yalqovlik	
Mas'uliyat	
Chaqqonlik	
Tartibilik	

Sabr-toqat	
Dangasalik	
Tartib-intizom	
Hasadgo'ylik	
Yolg'onchilik	
Ozodalik	



Boshqotirmani yeching.



Bo'yiga:

1. Ertakdagi mehnatkash qiz.
2. Dangasa o'quvchining kundaligida qaysi baho ko'p bo'ladi?
3. Mehnatning tagi —
4. Yalqov, ishyoqmas.

Eniga:

1. ... qilgan inson o'z maqsadiga erishadi.
2. Ishyoqmasligi uchun jazolangan qiz.
3. ... — aql chirog'i.



MEHNAT QO'SHIG'I

Mehnat — sharaf-shon ekan,
Mehnat — hayot va rohat.
Yashamoqni istagan
Ko'rsatgusi mahorat.

Shon-shuhratga ko'milur,
Har kim halol ishlasa.
Og'ir yumush yengilur
G'ayrat oti kishnasa.

Qanday sevsa mehnatni —
Otash yurak u Farhod,
Shunday sevar hunarni
Bu vatanda yosh avlod.

Zafar Diyor

HUNARLI INSONNING QADRI BALAND

Hunar haqida maqollar

Aql ko'kka yetkazar,
Hunar ko'pga.

* * *


Ilmsizga ishonch yo'q,
Hunarsizga quvonch yo'q.

* * *

Hunar bo'lsa qo'lingda,
Non topilar yo'lingda.



Siz yashayotgan hududda qaysi hunar turlari rivojlangan?



Kimdir orzu-istaklariga bilimi, kimdir esa kasb-hunari orqali erishadi. Ilm, kasb-hunar hamma zamonda ham qadrlangan.

Bilimli, kasb-hunarni puxta egallagan yoshlar yurt boyligidir. Yigitlari jasur, pahlavon, qizlari hayoli va iboli, ilmda peshqadam mamlakat dunyoga taniladi.

Dangasalik va yalqovlikdan yiroq bo'lgan ilm-hunarli inson hech qachon xor bo'lmaydi, hamisha izzatda bo'ladi.



Yoshlikda kasb-hunar egallash uchun insonda vaqt va imkoniyatlar yetarli. Bundan unumli foydalanish, vaqtni zoye o'tkazmaslik kerak.

Hunarning yaxshi-yomoni bo'lmaydi. Inson uni qunt bilan egallasa, usta degan sharafga ega bo'ladi.

Inson boyligini yo'qotishi mumkin, lekin hunarni undan hech kim tortib ololmaydi.

HUNARSIZLIK OQIBATI

O'tgan zamonda bir xasis boy bor edi. Uning boyligi shu darajada ko'p ediki, hisobini o'zi ham bilmasdi. Lekin bu boylikdan o'ziga ham, o'zgalarga ham foyda yo'q edi. U shunchalik ziqna ediki, boyligini yeyish-ichishga ham, ilm-u hunarga ham sarflamasdi.





Boyning Ahmad ismli birgina o'g'li bor edi. Bir kuni u o'g'lini hunar o'rgatish maqsadida hunarmandga olib bordi. Usta tartib-qoidalarni tushuntirib, o'rgatgan hunari uchun har oyda bir tilla to'lash kerakligini aytdi. Buni eshitgan boyning avzoyi buzilib, o'g'lini qaytarib olib ketdi.

Ahmad yoshlikda hunar o'rganmadi, bilim olmadi. Otasi vafot etgach, tezda boyliklarni sarflab, qashshoq kimsaga aylandi. U bilim yoki hunar egallamaganidan juda afsuslandi.

Xasisning moli, isrofgarning holi, ilm-hunarsizning ahvoli shunday bo'ladi.



1. Ahmad nima uchun otasidan qolgan boylikning qadriga yetmadi?
2. Boy o'g'liga hunar o'rgatganida u qanday inson bo'lib ulg'ayardi?
3. Siz qaysi hunarni o'rganishga qiziqasiz? Bu haqda ota-onangizga aytganmisiz?
4. Ota-onangizga o'zingiz qiziqqan hunar haqida so'zlab bering va ularning fikrini biling.

KIM BO‘LISHNI XOHLAYMAN?



Siz kelajakda kim bo‘lmoqchisiz? Bu kasb egalari qanday bilimlarni egallashlari kerak?

Kasb-hunarning yaxshi-yomoni bo‘lmaydi. Ularning hammasi birdek foydali.

Inson o‘z qiziqishidan kelib chiqib kasb tanlasa, muvaffaqiyatga erishishi oson bo‘ladi.

Ilm-fan taraqqiyoti tufayli yangi-yangi kasb turlari paydo bo‘lmoqda. Masalan, axborot texnologiyalari sohasida dasturchi, veb-dizayner, kompyuter operatori va boshqalar.

Axborot texnologiyalarining imkoniyatlari juda keng. Bu soha mutaxassisi bo‘lish uchun tinimsiz o‘qish va o‘rganish talab etiladi.





O'tgan asrning oxirlarida har bir xonadonda kompyuter bo'lishini tasavvur etish qiyin edi. Hozirgi kunda esa kompyutersiz hayotni tasavvur etish qiyin.

Axborot texnologiyalari sog'liqni saqlash, qo'riqlash, ma'lumotlar bilan ishlash, ta'lim, umuman hayotning barcha sohalariga kirib bordi. Shu bois sohani yaxshi biladigan kasb egalariga talab oshib bormoqda.

Inson qaysi kasbga qiziqsa, unga doir bilimlarni egallab borishi kerak.

SHIFOKORLIK — OLIJANOB KASB

Shifokorda qanday fazilatlar bo'lishi kerak?

Shifokor odamlarni yaxshi ko'rishi va mehribon bo'lishi kerak. Chunki u bemorlarga mehr beradi.

Shifokor dovyurak bo'lishi kerak. Chunki u xavfli kasalliklar o'ziga yuqishidan qo'rqmay, bemorni davolaydi.

Shifokor doimo xotirjam bo'lishi kerak. Uning xotirjamligi va o'ziga bo'lgan ishonchi bemorlarni ruhlantiradi.

Shifokor g'amxo'r va hushyor bo'lishi kerak. U kasallikning har bir belgisiga va bemorning aytayotgan so'zlariga e'tiborli bo'lishi lozim. Aks holda, kasallik avj olib ketadi yoki bemorning ko'ngli cho'kib, tuzalishi qiyinlashadi.

Shifokor fidoyi bo'lishi kerak. U har qanday vaziyatda odamlarga yordam berishi shart.

Shifokor sabr-toqatli bo'lishi kerak. Ba'zi kasalliklarni davolash uchun oylar va hatto yillar kerak bo'ladi.

Shifokor qiziquvchan va mehnatsevar bo'lishi kerak. U hamisha o'z bilimini oshirib, zamonaviy davolash sirlarini o'rganib borishi shart.



Tasavvur qiling, siz jurnalist siz. Ota-onangiz bilan kasb tanlash mavzusida suhbatlashing. Ulardan quyidagi savollarga javob oling va daftaringizga yozing:

1. Nima sababdan aynan shu kasbni tanlagansiz?
2. Bu kasbni egallash uchun qancha vaqt va mehnat talab etiladi?
3. Kasbingizning yaxshi va yomon tomonlarini ayting.

Quyidagi fikrlarga mos javoblarni rasmlardan toping va daftaringizga yozing:

1. Bolalarga ta'lim-tarbiya beradi.
2. Insonlarni davolaydi.
3. Chiroyli imoratlar quradi.
4. Tansiq taomlar pishiradi.
5. Bejirim kiyimlar tikadi.
6. Odamlarning uzog'ini yaqin qiladi.
7. Vatani qo'riqlaydi.
8. Turli-tuman noz-ne'matlar yetishtiradi.



MENING BO'SH VAQTIM



Daftaringizga bo'sh vaqtingizda nima qilishni xohlashingizni yozing.

Allomalardan biri: «Kim kunini bekor o'tkazsa, yaxshi amal qilmasa, insonlarga chiroyli so'z aytmasa, ilm yoki hunar o'rganmasa, o'ziga jabr qilibdi», degan ekan.

Vaqtni ortga qaytarib bo'lmaydi. Shuning uchun uni qadrlash, undan unumli foydalanish kerak.

Xalqimizda «Vaqting ketdi — baxting ketdi», degan maqol bor. Vaqtdan unumli foydalanib, yoshlikda bilim olgan, hunar o'rgangan odam kelajakda albatta o'z baxtini topadi.

Dangasa va ishyoqmaslar esa vaqtni behuda sarflaydi, natijada yutuqlarga erisha olmaydi. Donishmanddan so'rashibdi:

— Umrning qay bir soatlari bekor ketgan hisoblanadi?

Donishmand javob beribdi:

— Yaxshilik qilish imkoni bo'la turib, qilinmagan, ilm o'rganish imkoni bo'la turib, o'rganilmagan soatlari bekor ketgan hisoblanadi.



Vaqtни to'g'ri taqsimlagan inson hayotda ko'p yutuqlarga erishadi. Shuning uchun bo'sh vaqtda nimalar bilan mashg'ul bo'lishimizni aniqlab olishimiz kerak.

Bo'sh vaqtingizda nima qilasiz?

	Ha	Yo'q
Uy ishlariga yordam beraman	●	●
Kitob o'qiyman	●	●
Uxlayman	●	●
Sport bilan shug'ullanaman	●	●
Kompyuter o'yinlari o'ynayman	●	●
Televizor ko'raman	●	●
O'rtoqlarim bilan o'ynayman	●	●
... tilini o'rganaman	●	●
Hunar o'rganaman	●	●



Daftaringizga jadvalni ko'chiring va bo'sh vaqtingizda yana nimalar qilishingizni belgilang.

Berilgan jadvaldagi «Ha» javoblaringiz hamda «Yo'q» javoblaringiz sonini solishtiring. Ushbu savollardan qaysi biriga «Yo'q» deb javob berish foydaliroq?

Qiziqishlar sandiqchasini o'z qiziqishlaringiz bilan to'ldiring. Siz yana nimalarga qiziqasiz?



1. Kun davomida bajargan ishlaringizni yozing.
2. Ertangi kun uchun qanday reja qilgansiz?

AMALIY MASHG‘ULOT KUN TARTIBI



Davronning ertalabki kun tartibi to‘g‘ri tuzilganmi? Ketma-ketlikni saqlagan holda qayta tuzib chiqing.

Davron uyqudan turdi. Nonushta qildi. Tufisini kiydi. Kerakli kitob-daftarlarini sumkasiga joyladi. O‘rnini tartibga keltirdi. Yuz-qo‘lini, tishlarini yuvdi. Kiyimlarini kiydi. Ota-onasiga salom berdi. Maktabga bordi.



«Kun tartibi» jadvali bilan tanishing. Siz ham kunni shu tartib asosida o‘tkazasizmi? Quyidagi jadvalga vaqtni qo‘yib, daftaringizga yozing.

Kun tartibi	Vaqt	Kun tartibi	Vaqt
Uyqudan uyg‘onish		To‘garak va sport mashg‘ulotlariga borish	
Badantarbiya va yuvinish		Uy ishlariga yordamlashish	
Nonushta		Kechki ovqat	
Maktabga borish		Dars tayyorlash	
Maktabdan qaytish		Oilaviy suhbat	
Tushlik		Televizor tomosha qilish yoki kitob o‘qish	
Dam olish		Uxlash	

IV BOB. TASHQI KO'RINISH — INSON KO'RKI

TASHQI KO'RINISH MADANIYATI



Qayerga qanday kiyimda borish kerak?

Insonning qanday ekanini uning kiyinishidan ham bilish mumkin. Ust-boshi ozoda, kiyinish odobiga rioya qilgan odamga munosabat yaxshi bo'ladi.

Kiyinish odobiga rioya qilish uchun qimmatbaho kiyimlar kiyish shart emas. Muhimi, kiyimlar to'g'ri tanlangan, toza va dazmollangan bo'lishi kerak.

Kiyinish odobi

- kiyimlarni toza, ozoda saqlash va kiyish;
- ovqatlanayotganda kiyimlarni dog' qilmaslikka harakat qilish;
- kiyimni maxsus javonlar va ilgichlarda saqlash;
- kiyimlarni pala-partish, duch kelgan yerga tashlab ketmaslik;
- tugmalarni qadab, poyabzal bog'ichlarini bog'lab yurish;
- oyoq kiyimini juftlab, o'z joyiga qo'yish;
- doimo yonida ro'molcha olib yurish.



Rasmlardagi bolalarning kiyimlariga e'tibor bering. Ular qanday kiyingan? Bu kiyimlar qayerga borganda kiyiladi?



Dilnozaning xatti-harakatiga baho bering. Sizda ham shu kabi holatlar bo'lganmi?

— Dilnoza, maktab formangni yuvib, dazmollab qo'ydim, — dedi onasi.

— Yo'q, bugun maktabga yangi ko'ylagimni kiyib boraman, — dedi Dilnoza.

— Qizim, u ko'ylagingni mehmonga borganda kiyasan-ku.

— Yo'q, maktabga kiyib boraman, uni o'rtoqlarimga ko'rsatmoqchiman. Bo'lmasa, maktabga bormayman...

Dilshodga qanday maslahat berasiz?

Dilshod maktabga borguncha ko'chadagi kuchuk va mushuklarni quvadi, tosh otadi. U otgan toshlar ba'zan odamlarga tegadi. Dilshod uzr so'rash o'rniga qochib qoladi. Bir kuni u Salim boboning oynasini sindirdi.

Dilshod darsda ham tinch o'tirolmaydi. Partaga, sinf devorlariga turli so'zlarni yozadi, rasm chizadi. Sinfdoshlarini gapga tutib, diqqatini bo'ladi.

Dilshod o'z narsalarini ham ayamaydi. Bir kun shapkasini, boshqa kun sport kiyimini yo'qotadi. To'g'ri yo'l qolib, doim yo'l chetidan, loy va toshloq joylardan yuradi. Shuning uchun ota-onasi unga tez-tez kiyim sotib olib berishga majbur bo'lishadi. Dilshodga sizning maslahatingiz kerak. Unga qanday maslahat berasiz?



Kiyim-kechaklarni qanday saqlash kerakligi haqida matn tuzing.

ORASTALIK — INSON KO'RKI



Orastalik insonning ozodaligi, kiyinishi, yurish-turishi, buyumlarini qanday saqlashida ko'rinadi. Orasta insonga hammaning havasi keladi.

ORASTALIK QANDAY SOZ

Akmal 3- sinfda o'qiydi. «Odobnoma» darsida o'qituvchi orasta bola qanday bo'lishi kerakligi haqida gapirdi. Akmal ustozining gaplarini eshitib, o'zidan uyalib ketdi. Chunki u o'zini orasta va tartibli o'quvchi deb ayta olmasdi. Akmal shu kundan boshlab orasta bo'laman, deb o'ziga so'z berdi.

Uyga borgach, tufisini artib, joyiga qo'ydi. Sumkasini har kungidek eshik oldiga emas, o'z xonasiga olib borib qo'ydi. Kiyimlarini javonga ildi. Stolining usti betartibligini ko'rib, darhol tartibga keltirdi. Yuz-qollarini yuvib, sochlari ni taradi. Onasi ishdan kelguncha oshxonadagi idishlarni yuvib, changlarni artib qo'ydi. Bundan onasi quvondi:

— Orasta va aqlli o'g'limdan aylanay, — deb maqtadi.

— Oyijon, endi xonamni o‘zim yig‘ishtiraman. Siz kun bo‘yi ishlab, charchab kelasiz. Bugundan boshlab singlim bilan uy ishlarini bajarishda sizga yordam beramiz, — dedi.

Onasi Akmalning gaplaridan xursand bo‘ldi.



Kiyimlari va yuz-qo‘li ozoda, narsalari saranjom bola hammaga birdek yoqadi. Har bir bola o‘zining narsalarini tartibli tutishni odat qilishi kerak.



1. O‘quv qurollarini qanday saqlash kerak?
2. Sizningcha, bu qoidalarga yana qanday qo‘shimcha qilish mumkin?



1. Kitob varaqlarini yirtmaslik, buklamaslik, ularga chizmaslik lozim. Kitobdagi rasmlarni qirgʻish odobdan emas. Uzilgan varaqlarni yelimlash, qoʻl va qalam izlarini oʻchirgʻich bilan oʻchirish kerak.
2. Daftarni maxsus jild bilan oʻrash, unga ortiqcha narsalarni yozmaslik kerak.
3. Qalamlar maxsus qalamdonda saqlansa, uchi sinavermaydi.
4. Suyuq yelim va moyboʻyoqlarni maxsus gʻilofga yoki sumkaning alohida boʻlmasiga solgan maʼqul.



Rasmlarga diqqat qiling. Bolalarga ism bering va rasmda tasvirlangan manzara asosida ogʻzaki hikoya tuzing.



V BOB. BIZ YASHAYOTGAN OLAM

TABIAT NE'MATLARIDAN OQILONA FOYDALANISH



Ne'mat — inson hayoti uchun zarur bo'lgan narsalar. Masalan, suv, havo, gaz va hokazolar.

Tejamkorlik — ne'matlarni qadrlash, me'yorida ishlatish.

Isrofgarchilik — ne'matlarni qadrlamaslik va me'yoridan ortiqcha ishlatish.

Tejamkorlik — yaxshi fazilat. Tejamkor insonning oilasida baraka, ishida unum bo'ladi. Tejab-tergab ishlatilgan narsalar uzoqqa yetadi.

Isrofgarchilik esa, aksincha, yomon odat hisoblanadi. Shu bois ota-bobolarimiz tejamkor bo'lishga undashgan.

Hadislarda ham: «Kimki hayotda tejamkor bo'lsa, zinhor qashshoqlikka tushmaydi», deyiladi. Yoshligidan tejamkor bo'lishga o'rgangan odam hech narsaga zor bo'lmaydi.

Kundalik hayotimizda elektr energiyasining ahamiyati katta. Ko'chalar va uyimizni charog'on qiluvchi chiroqlarsiz hayotimizni tasavvur qilish qiyin.

Elektr energiyasi bilan ishlovchi texnika buyumlaridan har kuni foydalanamiz. Muzlatkich, tele-

vizor, dazmol, kompyuter va boshqa buyumlar ishlamasa, qay ahvolga tushamiz? Uyda chiroq bo'lmasa-chi?

Elektr energiyasi bitmas-tuganmas manba emas. Uni tejab-tergab ishlatish orqali oilamizga, mam-lakatimizga foyda keltiramiz.

Tabiat ne'matlari kelajak avlod uchun ham xiz-mat qilishi kerakligini unutmang.



1. Xonadoningizdagi elektr energiyasi bi-lan ishlovchi buyumlar ro'yxatini tuzing.
2. Siz ularni ishlatish qoidalarini bilasiz-mi?
3. Elektr jihozlaridan noo'rin foydalanish qanday oqibatlariga olib kelishi mum-kin?



Odobli bola maktabidagi va jamoat jo-yidagi narsalarni ham asrab-avaylashi ke-rak. Chunki bu narsa-buyumlar boshqalar-ga ham, uka va singillarimizga ham xizmat qilishi zarur.

BUVINING O'GITI

Anvar ertalab shosha-pisha nonushta qildi. U kattagina non bo'lagini olib, bir-ikki tishladi, shi-rin choyni ham oxirigacha ichmadi. Buni kuzatib turgan buvisi dedi:

— Bolam, nonni oxirigacha yeb, choyni ichib qo‘ymaysanmi?

— Qornim to‘ydi, yegim kelmayapti.

— Bu ishing yaxshi emas, bolajonim. Hamma narsani o‘zingga yarashasini olgin, ortiqchasi isrof bo‘ladi. Esingda bo‘lsin, isrofgarchilik — eng yomon odat. Har narsaning uvoli bo‘ladi. Nimani xor qilsang, shunga zor bo‘lasan. Shunday paytlar bo‘lganki, odamlar bir burda non uchun jon berishgan. Sening bu ishing to‘qlikka sho‘xlik qilishdir. Bundan keyin zinhor bunday qilmagin.

— Xo‘p bo‘ladi, buvijon, — dedi Anvar va bu gaplarni yoddan chiqarmaslikka va‘da berdi.



Hayotda tejamkor bo‘lish orqali nafaqat oilamizga, balki davlatimizga ham foyda keltiramiz. Behuda oqib turgan suvning jo‘mragini burab qo‘yish, yoniq qolgan chiroqni yoki gazni o‘chirish orqali qanchadan-qancha mablag‘ni tejash mumkin.



1. Tabiat ne‘matlarini tejab-tergab ishlatishtish deganda nimani tushunasiz?
2. Isrofgarchilik qanday oqibatlariga olib keladi?
3. Siz o‘zingizni tejamkor deb bilasizmi? Fikringizga misollar keltiring.

SUV — HAYOT MANBAYI



1. Suvsiz hayotni tasavvur qilish mumkinmi?
2. Kun mobaynida suvdan nima uchun va qay maqsadda foydalanasiz?

Suv — hayot manbayi. Suv bo‘lmagan joyda hayot ham bo‘lmaydi. Jonzotlar ham, o‘simliklar ham suv bilan tirik. Suv bitmas-tuganmas manba emas. Shu bois uni qadrlash kerak. Qadimda bobolarimiz suvga tupurish, turli chiqindilarni tashlashni gunoh deb bilishgan. Suvni ifloslantirgan odamni jazolashgan.

Dunyoda ichimlik suvi taqchil bo‘lgan mamlakatlarda ko‘p. Ba‘zi davlatlarda yashaydigan odamlar suvni oltin bahosida sotib oladilar. Suvni qadrlash, tejash har birimizning burchimizdir.

NON VA SUV QADRI

Qadimda bir boy va bir kambag‘al kishi uzoq safarga chiqishibdi. Manzilga yo‘l cho‘l-u biyobon orqali o‘tar ekan. Boy qop to‘la oltin-u javohirlarni ko‘tarib olibdi. Kambag‘al esa xalta to‘la non va bir mesh suv olibdi. Ular yo‘l yurishibdi, yo‘l yursa ham mo‘l yurishibdi. Boyning ochlik va tashnalikdan sillasi quribdi.

— Ey do‘stim, boylikka ishonib, katta xato qilgan ekanman. Menga ham non-suvingdan ber, — debdi.

Hamrohi unga non-suv beribdi. Shu tufayli ular manzilga sog‘-omon yetib olishibdi. Xulosa shuki, non-suv har qanday boylikdan ham qimmatliroq va qadrliroqdir.




1. Ushbu rivoyatdan qanday xulosa chiqardingiz?
2. Insonning yashashi uchun zarur bo‘lgan narsalarni sanab bering.

Suvni tejash uchun quyidagilarga rioya qiling:

1. Jo‘mrakdan oqayotgan suvni berkitib qo‘ying.
2. Ariq va hovuzlarga turli narsalar hamda chiqindilarni tashlamang.
3. Behuda oqib yotgan suvdan kattalarni xabardor eting.
4. Suvni ishlatishda me‘yorni saqlang.



Suv qay maqsadda va nima uchun ishlatilishi haqida mulohaza yuriting. Javoblaringizni daftarga quyidagi ko‘rinishda yozing:





SUV

Suvdir olamning joni,
Obod umr bo'stoni.
Suv bor joyda yashnar don,
Tandirlarda pishar non.

Qonib ich, yayrab yuvin,
Bahramand bo'lib sevin,
Diling gul yashnar, maza,
Qanday soz — taning toza.

Kim qatra durin tejar,
Yurtin, taqdirin bezar.
Zilol suvi bor Vatan,
Yutuqlarga yor Vatan.

Qambar Ota



Qambar Otaning «Suv» she'rini yod oling. Oilangizda suvga munosabat va undan qanday foydalanilishi haqida gapirib bering.

MEN TABIATNI QANDAY ASRASHIM MUMKIN?



1. O'z qo'lingiz bilan ko'chat ekanmisiz? Ko'chatni qanday parvarishlash kerak?
2. Tabiatni kim asrashi kerak, deb o'ylaysiz?

Insonlar, o'simliklar va jonivorlar tabiatning bir bo'lagi hisoblanadi. Har bir tirik jonning nafas olishi va yashashi uchun suv, havo va oziq-ovqat kerak. Bularning bari tabiatda mavjud. Tabiat bizning umumiy uyimiz. Uni asrash har birimizning burchimizdir.



Nargiza va Azizbek tabiatni asrashda quyidagi qoidalarga amal qiladi. Siz bu qoidalarga yana qanday qo'shimchalar kiritgan bo'lardingiz?

1. Daraxt va gullar ekish, parvarishlash.
2. Suvni tejash va ifloslantirmaslik.
3. Chiqindilarni duch kelgan joyga tashlamaslik.
4. Jonivorlarga ozor yetkazmaslik.
5. Xazonlarni yoqmaslik ...



1. Oilangiz yoki do'stlaringiz bilan sayohatga chiqqanmisiz?



2. Sayohat uchun olgan yegulik va ichimliklardan bo'shagan idishlarni qayerga tashlash kerak?
3. Sayohat chog'ida gul va o'simliklarni uzish, daraxtlarning shoxini sindirish mumkinmi?

Quyidagi vaziyatlarni tahlil qiling

1- vaziyat. Tasavvur qiling, maktabdan uyga qaytyapsiz. Ko'chada bir guruh bolalar to'plangan xazonga o't qo'yishayotganini ko'rib qoldingiz. Bunday vaziyatda qanday yo'l tutasiz?

2- vaziyat. Do'stlaringiz bilan o'ynab yuribsiz. O'rtoqlaringizdan biri daraxtdagi qush uyasini ko'rib qoldi. «Balki uyada polaponlar bordir? Kelinglar, ularni olamiz», dedi. Siz qanday yo'l tutasiz?

TABIAT QO'YNIGA SAYOHAT

Tabiatshunoslik darsida 3- sinf o'quvchilari ustoz bilan tabiat qo'yniga sayohatga chiqishdi. Ustoz yo'l-yo'lakay bolalarga ona tabiat, uni qanday asrash kerakligi haqida gapirdi.

— Voy, mana bu suvning tiniqligini, — dedi Farrux.

— Bahorda suvlar tiniq oqadi. Uning tiniqligi va tozaligini saqlash kerak. Ota-bobolarimiz suvga har xil chiqindilarni tashlashni og'ir gunoh deb bishgan, — dedi ustoz. — Suv bo'yidagi mana bu yalpiz, otquloq va jag'-jag'larni ko'ryapsizmi? Ular erta bahorda insonga kuch-quvvat beradi. Onajonlarimiz ulardan turli taomlar pishiradilar.

Maftuna daraxtlarga qarab, zavqini yashirolmadi:

— Mana bu qanday daraxt, ustoz?

— Bu jiyda daraxti. Uning gullari xushbo'y, mevasi shifobaxsh. Daraxtlar havoni tozalab, sog'lig'imizni asraydi. Biz ham ularni asrashimiz kerak.

— Qushlarning yoqimli sayrashini eshityapsizmi? — dedi Akmal.

— Bu qushlar bahorda uzoq o'lkalardan uchib keladi, — dedi ustoz. — Qushlar in qurib, tuxum qo'yish va palapon chiqarishga tayyorlanmoqda. Ba'zi bolalar ularning inini buzib, ozor yetkazadi. Sizlar aslo bunday qilmang.

O'quvchilar tabiat qo'ynida maza qilib hordiq chiqarishdi. Sayohatdan qaytar ekan ustoz dedi:

— Aziz o‘quvchilar, tabiat qanchalik go‘zal va va saxovatli ekanini bilib oldingiz. Ona tabiatni asrab-avaylash burchimiz ekanini doimo yodda tuting.



1. Tabiatga nima uchun «ona» so‘zini qo‘shib aytamiz?
2. Nima uchun tabiatni asrash kerak?
3. Tabiatni asrashga siz qanday hissa qo‘shasiz?

AMALIY MASHG'ULOT MEN YASHAYOTGAN JOY TABIATI



1. Yashayotgan joyingiz tabiati haqida soʻzlab bering.
2. Siz yashayotgan hudud boshqa joylardan nimasi bilan farq qiladi?

Bizning ona sayyoramiz Yerdir. Yer yashash uchun juda qulay sayyora. U okean va dengizlar, togʻ va muzliklar, choʻl va oʻrmonlardan iborat. Yer insonlarni, hayvon va oʻsimliklarni oʻz bagʻriga olgan.

Yerdagi hayot davom etishida har bir jonzot va oʻsimlikning oʻz vazifasi hamda oʻrni bor.

Tabiat qatʼiy tartib asosida yashaydi. Undagi bi-
ror jonzot yoki oʻsimlikning yoʻqolib ketishi tartib-
ning buzilishiga sabab boʻladi. Bu esa turli tabiiy
ofatlarni keltirib chiqaradi.

Jamiki mavjudotlarning yashashi uchun hayot
oʻz maromida borishi kerak. Yer yuzida hayotni
asrab qolish uchun esa har birimiz masʼulmiz.




Inson oʻz xatti-harakatlari uchun javobgar.
U har bir ishini uning oqibatini oʻylab ba-
jarishi kerak.



Topishmoqlarga javob topib, boshqotirmani yeching

Bo'yiga:

1. O'zi oyoq ostida,
Hammani to'ydiradi.
2. Yerga tushsa, loy qilar,
Butun olamni boy
qilar.



Eniga:

1. Oppoq sochli boshlari,
Daryo bo'lar yoshlari.
2. O'yib oldim,
Izi yo'q.
3. Zar gilam, zar-zar gilam,
Ko'taray desam, og'ir gilam.
4. Nur sochar issiq,
Boqolmayman, ko'zim qisiq.



O'zingiz yashayotgan hudud tabiatini tasvirlab bering.

VI BOB. MILLIY MADANIYAT

MILLIY URF-ODATLAR VA BAYRAMLAR



1. Sizning oilangizda tug'ilgan kun marosimlari qanday nishonlanadi?
2. Siz ham to'y yoki boshqa marosimlarda ishtirok etganmisiz? Ular qaysi jihatlar bilan qiziq?
3. Uyga mehmon kelganda kattalarga qanday yordam berasiz?

Har bir xalqning yashash sharoiti bilan bog'liq urf-odati, bayram va marosimlari bor. Mustaqillikka erishganimizdan so'ng milliy qadriyatlarimiz tiklandi. Navro'z, Qurbon va Ramazon hayitlari umumxalq bayramlari qatorida nishonlanadigan bo'ldi.

Inson tug'ilganidan boshlab, to keksayguniga qadar bir qancha marosimlarni boshidan kechiradi. Chaqaloqqa ism berish, beshik to'yi, sunnat to'yi, muchal yoshi, nikoh to'yi shular jumlasidan.

Qadimda katta bir vazifani yoki obodonchilik ishlarini amalga oshirish uchun hasharlar uyushtirilgan. Hashar xalqni birlashtiradigan, mehr-oqibatga undaydigan qadriyatdir.

Mehmondoʻstlik xalqimizga xos fazilat. Bobo va buvilarimiz mehmonni dasturxonning toʻriga oʻtqazish, taomlar bilan siylash kerakligini uqtirishadi.

Milliy urf-odatlar va marosimlar — boyligimiz. Ularni qadrlash, kelajak avlodga yetkazish esa burchimizdir.



Quyidagi rasmlarda qanday urf-odat va marosimlar tasvirlangan?



Topshiriq

Milliy urf-odat va marosimlarni aks ettiruvchi rasm chizishga harakat qiling.



1. Qanday milliy va umumxalq bayramlarni bilasiz?
2. Bayram kunlari arazlaydigan, boshqalarning kayfiyatini buzadigan bolalarga munosabatingiz qanday?

Navro‘z — qadimiy xalq bayrami. Ajdodlarimiz ko‘klam kelishi va tabiatning uyg‘onishini yangi yil sifatida bayram qilganlar. Navro‘z «nav» — yangi, «ro‘z» — kun demakdir.

Navro‘z milliy urf-odatlar namoyishi, mehr-oqibat bayramidir.

9- may — Xotira va qadrlash kuni. Bu kunda o‘tganlar xotirasi yodga olinadi, keksalar va mehrga muhtojlar holidan xabar olinadi.

1- sentabrda qutlug‘ sana — Mustaqillik kunini bayram qilamiz.

Ustoz va murabbiylar kunini har yili 1-oktabrda nishonlaymiz. Shu kuni hamma o‘ziga bilim bergan, hunar o‘rgatgan ustozlariga ta‘zimda bo‘ladi.

Bosh qomusimiz — Konstitutsiya kunini 8- dekabrda nishonlaymiz.

Yangi yil dunyo xalqlari tomonidan katta xursandchilik bilan kutiladigan bayramdir.

Xotin-qizlar kuni — 8- martda aziz onajonlarimiz, opa-singillarimizga bo‘lgan hurmat-ehtiromimizni bildiramiz.

Ramazon va Qurbon hayiti ezgulik va mehr-oqibatga chorlovchi diniy bayramlar hisoblanadi.



Umumxalq bayramlarida mehmon kutish, yangi kiyimlar kiyish, sayillarga chiqish an'anaga aylangan.

Bayramlarni, to'y va marosimlarni urf-odatlarimizga amal qilib, ixcham va tejamli tarzda o'tkazishga harakat qilishimiz lozim.



Ushbu sanalar qanday kun sifatida nishonlanishini ikkinchi ustundan topib, daftaringizga yozing.

1- yanvar	Mustaqillik kuni
8- mart	Xotira va qadrlash kuni
21- mart	Konstitutsiya kuni
9- may	Navro'z
1- sentabr	Yangi yil
1- oktabr	Xotin-qizlar kuni
8- dekabr	Ustoz va murabbiylar kuni

Bayramga borish va o'zini tutish odobi:

- chiroyli kiyimlar kiyish;
- xush kayfiyatda bo'lish;
- atrofdagilarni bayram bilan tabriklash;
- yaqinlariga sovg'alar ulashish;
- bemorlar va keksalar holidan xabar olish;
- insonlarning dilini og'ritmaslik, xafa qilmaslik;

...

Ushbu qatorni davom ettiring.



Rasmlarga e'tibor qiling. Ularda O'zbekistonda yashovchi turli millatlarning milliy bayramlari aks etgan. Boshqa xalqlarning qanday bayramlarini bilasiz? Ular haqida ma'lumot to'plang.

MEHR-SHAFQAT VA MURUVVAT TUYG‘USI



1. Qanday insonlarni yaxshi odam deb bilasiz?
2. Siz ham birovga yaxshilik qilganmiz?

Mehr-shafqat va muruvvat xalqimiz qadrlaydigan fazilatlar hisoblanadi. O‘zbek xalqi Ikkinchi jahon urushi davrida mehr-shafqat va muruvvatning yuksak namunasini ko‘rsatdi. Uyidan, yaqinlaridan judo bo‘lgan insonlarga uyidan joy berdi. Ota-onasidan ajralgan bolalarni qaramog‘iga oldi, boshini siladi.

Muqaddas dinimiz ham insonlarni mehr-muruvvatli, shafqatli bo‘lishga da‘vat etadi. Hadislarda: «To bir-birlaringizga mehr-muruvvatli bo‘lmaguningizcha, mo‘min bo‘lmaysizlar», deya marhamat qilingan.

Birovning holidan xabar olib, unga mehr ko‘rsatish, ko‘nglini ko‘tarish — savobli ish. Shu bois ota-bobolarimiz keksa, nogiron va muhtojlarga yordam ko‘rsatishni insoniylik burchi deb bilishgan.

Hayvonlar qadimdan insonning yaqin do'sti, ko'makchisi bo'lib kelgan. Ular gapira olmasalar ham mehr-shafqatni, yaxshilikni his qiladilar. Kishining hayvonlarga munosabatidan uning qanday odam ekanini bilib olish mumkin.

Mehr ko'rsatish uchun boy yoki kuchli bo'lish shart emas. Insonlarga kerakli paytda yordam berish yoki shirin so'z aytish ham mehr-muruvvatdir.

Muqaddas kitoblarda insonlar bir-biriga mehribon, muruvvatli bo'lib yashashlari lozimligi qayd etilgan. Shuningdek, savobli ishlarni qiladigan insonlarga yaxshilik eshiklari doimo ochiq bo'lishi ta'kidlangan.

YAXSHILIK UNUTILMAYDI

Luqmoni hakim hamisha birovlariga yaxshilik qilar ekan. Uning mehr-shafqati va saxiyligini eshitgan kishilar uzoq shahar va qishloqlardan yordam so'rab kelisharkan. Kunlarning birida noma'lum kishi uning huzuriga keldi va dedi:



— Ey, Luqmon, men mashhur savdogar edim. Ayrim sabablarga ko'ra ishim orqaga ketdi, bor-budimdan ayrildim. Qo'limdan hech bir ish kelmaydi, kasb-u hunarim yo'q. Sendan qarz so'rab keldim.

Luqmon uyidan bir xalta pul chiqarib, savdogarning qo'ligha tutqazdi. Buni kuzatib turgan o'g'li otasiga qarab:

— Ota, shuncha pulni notanish bir odamga berib yubordingiz. U tonib ketsa, nima qilasiz? — deb so'radi.

— Ey, o'g'lim, — dedi Luqmon, — odamlar hech qachon yaxshiligingni unutmaydilar. Vaqtincha ular sendan yuz o'girsalar ham, bir kun insofga keladilar. Inson qo'lidan kelguncha birov-larga yaxshilik qilishi va qilgan yaxshiligini unutishi zarur. Ammo boshqalarning o'ziga qilgan yaxshiligini aslo unutmasligi kerak.



1. Ota-onangiz yoki bobo-buvilaringizdan mehr-shafqat, muruvvat nima ekani haqida so'rang.
2. Yaxshilik haqida she'r yoki hikoya o'qib keling, mazmunini o'rtoqlaringizga so'zlab bering.

OILA — TARBIYA MASKANI



Oila — muqaddas dargoh. Inson oila bag'rida ulg'ayadi.

O'zbek oilalarida bobo va buvilar, ota-onalarga hurmat, kichiklarga izzat ko'rsatiladi.

Har bir oila davlatimiz g'amxo'rligi va e'tiborida. Yoshlarni tarbiyalash, kamolga yetkazish, ilm-hunar o'rgatish — o'zbek oilalariga xos an'analardir.

Bobo-buvilarimizning nasihati, otalarning ibрати, onalarning mehri orqali tarbiya avloddan avlodga o'tadi.

Jismonan sog'lom, ma'nan yetuk va barkamol avlodni tarbiyalashda oilaning roli beqiyos.



Bosh qonunimiz — Konstitutsiyaga ham «Oila» bobi kiritilgan. Unda oila jamiyatning asosiy bo‘g‘ini ekanligi, davlat muhofazasida bo‘lishi belgilab qo‘yilgan.



O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 64-moddasi:

Ota-onalar o‘z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar.

* * *

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 66-moddasi:

Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlar o‘z ota-onalari haqida g‘amxo‘rlik qilishga majburdirlar.

MENING OILAM

Biz oilada to‘rt kishimiz: ota-onam, singlim va men. Oilamizda har bir insonning o‘z o‘rni bor.

Hammamiz bir oila bo‘lib dasturxon atrofiga to‘planamiz va bir vaqtda turamiz. Har birimizning o‘z vazifalarimiz bor. Men va singlim uy ishlarida kattalarga yordam beramiz.

Ota-onamiz bizga inoq, odobli, mehnatsevar bo'lishimizni uqtiradilar.

Men dunyodagi eng baxtli insonman. Chunki mening oilam bor.

Oila insonlar bir-biriga mehr va yordam berib, bahamjihat yashaydigan maskandir. Uni asrab-avalash, qadrlash zarur.



Oilangiz haqida kichik hikoya tuzing.
Oilada sizning vazifalaringiz nimalardan iborat?

KEKSALARNI ARDOQLAYLIK



1. Sizing qarindoshlaringiz va qo'shnilaringiz orasida keksa insonlar bormi?
2. Bobongiz yoki buvingizning qaysi nasihatlarini doimo yodda tutasiz? Kattalarning so'zlarini quloqqa olmaganingiz uchun pushaymon bo'lganingizni eslaysizmi?

Keksa insonlar bor xonadon farishtali bo'ladi. Bobo va buvilarimizning duosi, pand-nasihatlari bizga asqotadi. Ular hayot tajribalarini o'rgatishadi, ertaklar aytib berishadi.

Yurtimizda keksa yoshdagi insonlar ardoqlanadi. Ularga g'amxo'rlik ko'rsatiladi, holidan xabar olinadi.



Kattalarni hurmat, kichiklarni izzat qilish xalqimizga xos qadriyatlardan. Keksalarga salam berish, ularning so'zlariga quloq solish, nasihatlariga amal qilish lozim.

KEKSALARNING DUOSI

Nodir bo'sh vaqtini bobosi va buvisi bilan o'tkazishni yoqtiradi. Chunki ular bilan vaqtning qanday o'tganini sezmay qoladi. Ular bog'da daraxt va gullarni birga parvarish qilishadi. Bobosi o'simlik va qushlar, hayvonlar haqida qiziq-qiziq voqealarni so'zlab beradi. Buvisining maqollari, qo'shiq va ertaklarini maza qilib eshitadi.



Kunlarning birida Nodir do'sti Zokir bilan maktabdan qaytayotgan edi. Yo'lda katta sumkani zo'rg'a ko'tarib ketayotgan bir kampirni ko'rib qolishdi.

— Zokir, kel, onaxonga yordam beraylik, — dedi Nodir.

— Yo'q, men tezroq uyga borib, dars tayyorlamoqchiman, — dedi Zokir.

— Mayli, sen ketaver. Men yordam beraman, — dedi Nodir.

Bobosi va buvisi Nodir nega kech qolganini surishtirishdi. Nabirasining javobini eshitgach:

— Barakalla, bolam. Keksalarning duosini ol-sang, aslo kam bo'lmaysan. Axir: «Oltin olma, duo ol», deyishadi-ku, — dedi bobosi uning yelkasiga qoqib.



1. Zokirning xatti-harakatini qanday baholaysiz?
2. Sizningcha, notanish keksalarga yordam berish shartmi? Javobingizni izohlab bering.

MAHALLA VA QO'NI-QO'SHNICHILIK MUNOSABATLARI



1. Mahallangiz nomini bilasizmi? Unga nima uchun shunday nom qo'yilganini-chi?
2. Mahallangizdan taniqli kishilar yetishib chiqqanmi? Ular haqida so'zlab bering.

Mahalla o'zbek xalqining eng qadimiy, takrorlanmas milliy qadriyatlaridan biridir. Inson mahallada voyaga yetadi, ulg'ayadi, do'stlar orttiradi.

Qadimdan mahalla odamlari bir oila a'zolaridek ahil-inoq yashashgan. Kimgadir yordam kerak bo'lsa, mahalla ahli e'tiborsiz qoldirmagan. Uy-joylar ko'pchilikning yordami bilan hashar qilib qurilgan.

«Bir bolaga yetti qo'shni ota-ona», degan maqol bejiz aytilmaydi. Mahalla kattalari yoshlarning tarbiyasiga bee'tibor bo'lmaydi, o'z farzandidek nasihat qiladi.

Mahalla oqsoqollari va faollari har bir oilaning tinch-totuv yashashiga hissa qo'shadi.

Qo'ni-qo'shnilarning holidan xabar olish, ularga yordam berish kabi go'zal odatlar va ko'nikmalar mahallada rivojlanadi.



Qo'ni-qo'shnilarning ko'chalarni ozoda va sarishta saqlashi, to'y-ma'rakalarni ahillikda o'tkazishiga havas qilsa arziydi.

Respublikamizda o'n mingdan ortiq mahalla mavjud. Ular tobora chiroy ochib, obod bo'lib borishida qo'ni-qo'shnilik munosabatlarining ahamiyati katta.

OBOD MAHALLA

Otabek bobosi bilan umumxalq xayriya hashariga chiqdi.

Hashar tufayli mahalla yanayam chiroy ochdi. Ko'chalar obodonlashtirildi, daraxtlar oqlandi.

Orif akaning uyida qurilish avjida. Mahalla a'zolari bahamjihat ishlashyapti.

Salima xolaning hovlisida esa doshqozonda sumalak qaynayapti.

Otabek bobosi bilan mahalla guzaridagi otalar choyxonasi, sataroshxona, do'konlar

yonidan o‘tar ekan yangi sport maydonchasi- ga ko‘zi tushdi. «Endi bu yerda do‘stlarim bilan maza qilib futbol o‘ynaymiz», — deb quvondi.

— Bobojon, mahallamiz judayam ko‘rkam bo‘lib ketibdi, — dedi Otabek.

— Albatta, bolajonim. Mahallamiz fayzi in- sonlarning mehr-oqibatida. Bu maydoncha- ni mahallamiz tadbirkorlari qurib berishdi. Sen ham ana shunday tadbirli, shijoatli, aqli inson bo‘lib, yurtning, mahallang rivojiga o‘z hissangni qo‘shishing lozim, — dedi bobosi.



1. Mahallangizda sport bilan shug‘ullanish, hordiq chiqarish uchun sharoitlar yaratilganmi?
2. Qo‘ni-qo‘shnilar bilan qanday ishlarni birligida amalga oshirasizlar?

YAKUNLOVCHI DARS



Ta'til uchun topshiriqlar

1. Ibratli hikoya, she'r, ertak va rivoyatlardan mutolaa qiling.
2. Axloq-odobga oid maqollarni yod oling.
3. Ota-onangiz bilan o'zingiz yashayotgan hududdagi tarixiy joylarga ziyoratga chiqing.
4. Yoz davomida do'stlaringiz bilan miriqib hordiq chiqaring, milliy va harakatli o'yinlarni o'ynang, jismonan chiniqing.
5. Kattalarga uy-ro'zg'or, bog' va dala ishlarida yordam bering.

Aziz o'quvchi!

Yil davomida odob-axloqqa, milliy urf-odatlarimiz haqida ko'plab ma'lumotlarga ega bo'ldingiz. Bu bilimlarni egallashning o'zi yetarli emas. Ularga amal qilish zarur.

Ta'til — dam olib, yangi bilimlarni egallash uchun kuch to'playdigan davr. Ta'tilda bo'sh vaqt ko'p bo'ladi. Daralar davomida olgan bilimlaringizdan foydalanib, uni mazmunli o'tkazing.

MUNDARIJA

I BOB. VATAN — MUQADDAS

O‘zbekiston Respublikasi — mustaqil davlat.....	5
Davlat ramzlari — milliy iftixorimiz.....	13
Tarixiy obidalar — madaniy boyligimiz.....	16
Amaliy mashg‘ulot.	
«Men yashayotgan hududdagi tarixiy obidalar»	20

II BOB. ODOB-AXLOQ XAZINASI

Ma’rifatparvarlik ajdodlarimizdan meros fazilat.....	23
Odob-axloq me’yorlari.....	30
Odob-axloq haqida hadislar.....	33
Mutolaa odobi	35
Amaliy mashg‘ulot.	
«Men sevgan kitob»	39

III BOB. MEHNAT INSONNI ULUG‘LAYDI

Mehnat inson hayotini bezaydi.....	43
Hunarli insonning qadri baland	46
Kim bo‘lishni xohlayman?.....	50
Mening bo‘sh vaqtim.....	54



Amaliy mashg'ulot.

Kun tartibi.....57

IV BOB. TASHQI KO'RINISH — INSON KO'RKI

Tashqi ko'rinish madaniyati.....58

Orastalik — inson ko'rki61

V BOB. BIZ YASHAYOTGAN OLAM

Tabiat ne'matlaridan oqilona foydalanish64

Suv — hayot manbayi.....67

Men tabiatni qanday asrashim mumkin?70

Amaliy mashg'ulot.

Men yashayotgan joy tabiati74

VI BOB. MILLIY MADANIYAT

Milliy urf-odatlar va bayramlar.....76

Mehr-shafqat va muruvvat tuyg'usi.....81

Oila — tarbiya maskani.....84

Keksalarni ardoqlaylik.....87

Mahalla va qo'ni-qo'shnichilik munosabatlari.....89

Yakunlovchi dars92

**Mohira Xoliqova,
Shahnoza Ergasheva**

ODOBNOMA

3- sinf

To'rtinchi nashri

Toshkent — «Yangiyul Poligraph Service» — 2019

Nashriyot litsenziyasi AI № 185 10.05.2011 y.

Muharrir J. Azimov
Texnik muharrir D. Titorenko
Musahhah T. Mahmudova
Rassom J. Azimov

Bosishga 2019 yil 6 mayda ruxsat etildi. Bichimi 70x90 ¹/₁₆.
Arial garniturası. Ofset bosma. Bosma t. 6,0. Shartli b. t. 7,02.

Adadi nusxa.

Buyurtma №
Shartnoma

112001, «Yangiyul Poligraph Service» MChJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent viloyati, Yangiyo'l shahri, Samarqand ko'chasi, 44- uy.

Ijaraga berilgan darslik holatini ko'rsatuvchi jadval

T/r	O'quvchining ismi va familiyasi	O'quv yili	Darslikning olingandagi holati	Sinf rahbari-ning imzosi	Darslikning topshiril-gandagi holati	Sinf rahbari-ning imzosi
1						
2						
3						
4						
5						
6						

Darslik ijaraga berilib, o'quv yili yakunida qaytarib olinganda yuqoridagi jadval sinf rahbari tomonidan quyidagi baholash mezonlariga asosan to'ldiriladi:

Yangi	Darslikning birinchi marotaba foydalanishga berilgandagi holati.
Yaxshi	Muqova butun, darslikning asosiy qismidan ajralmagan. Barcha varaqlari mavjud, yirtilmagan, ko'chmagan, betlarida yozuv va chiziqlar yo'q.
Qoniqarli	Muqova ezilgan, birmuncha chizilib, chetlari yedirilgan, darslikning asosiy qismidan ajralish holati bor, foydalanuvchi tomonidan qoniqarli ta'mirlangan. Ko'chgan varaqlari qayta ta'mirlangan, ayrim betlariga chizilgan.
Qoniqarsiz	Muqovaga chizilgan, yirtilgan, asosiy qismdan ajralgan yoki butunlay yo'q, qoniqarsiz ta'mirlangan. Betlari yirtilgan, varaqlari yetishmaydi, chizib, bo'yab tashlangan. Darslikni tiklab bo'lmaydi.